O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETINING 3-SONLI KENGASHI YIG‘ILISH BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA

2025-yil 29-oktabr soat 11^{00} *Chirchiq shahri*

Yig‘ilishda qatnashganlar: 45 *nafar Kengash a’zosidan 40 nafari N.Xasanova – yig‘ilish kotibi.*

K U N T A R T I B I :

7. Turli masalalar.

7.7. Jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha tayyorlangan ishlarni muhokama qilish hamda nashrga tavsiya etish to‘g‘risida.

Eshitildi:

Mazkur masala yuzasidan Universitet Kengashi kotibi N.Xasanova axborot berdi. Universitet uslubiy Kengashining 2025-yil 28-oktabrdagi 2-sonli yig‘ilishida jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha tayyorlangan ilmiy-uslubiy ishlar ko‘rib chiqilganini aytib o‘tdi.

Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD) Qurbonov Xurshid Xolliyevichning “Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o‘rta masofalarga yuguruvchilarning sport formasini takomillashtirish metadologiyasi” mavzusidagi monografiyasi to‘g‘risida ma’lumot berib, ushbu monografiyani nashrga tavsiya qilish bo‘yicha gapirdi. Monografiyani nashrga tavsiya qilish masalasi Kengash a’zolari tomonidan muhokama qilinib ovozga qo‘yildi.

Ovoz berish natijalari: “yoqlab” – 40 nafar, “qarshi” va “betaraf”lar – yo‘q.

QAROR QILINDI:

1. Universitet Kengashi kotibi N.Xasanovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD) Qurbonov Xurshid Xolliyevichning “Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o‘rta masofalarga yuguruvchilarning sport formasini takomillashtirish metadologiyasi” mavzusidagi monografiyasini nashr etishga ruxsat berilsin.

Ko‘chirma ishonchli

Kengash raisi **R.Matkarimov**

Kengash kotibi **N. Xasanova**